

TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHNING DIDAKTIK  
TAMOYILLARI

*Abduraxmonova Muxayyo Raximovna  
Shahrisabz davlat Pedagogika instituti  
Texnologik ta'lim yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada umumiyl o'rta ta'limg muassasalarida texnologiya darslarini didaktik tamoyillarga asoslanib o'qitishning mazmuni, o'quvchilarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish borasida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktik tamoyillar, onglilik va faollik, tizimlilik va izchillik, nazariya bilan amaliyotni birligi, ko'rsatmalilik tamoyili, pedagogik faoliyat, o'zaro muloqot.

**Аннотация:** Рассмотрено содержание уроков технологии обучения в общеобразовательных средних учебных заведениях, основанных на дидактических принципах, методах, служащих умственному и физическому развитию учащихся, сотрудничестве с ним, направлении его на учебу и учебу, правильной организации деятельности учащегося. .

**Ключевые слова:** Дидактические принципы, осознанность и активность, системность и последовательность, единство теории и практики, принцип обучения, педагогическая деятельность, взаимодействие.

**Abstract:** The content of teaching technology lessons in general education secondary schools based on didactic principles, methods that serve the mental and physical development of students, cooperation with them, directing them to study and study, and the correct organization of the student's activities is considered.

**Key words:** Didactic principles, awareness and activity, consistency and consistency, the unity of theory and practice, the principle of learning, pedagogical activity, interaction.

### **Texnologik ta'limning didaktik tamoyillari.**

Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiyl qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan cham barchas bog'liq ta'limg jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan yetakchi qoidalar didaktik qoidalar deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, o'quvchilarning bilim faoliyatini. xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalar hisoblanadi.



Didaktik talablar texnologik ta’limning-tarbiyaviy vazifalarini nazariy jihatdan to’g’ri bajarilishini ta’minlaydi.Texnologik ta’limini o’qitish metodikasi didaktikaning xususiy tarmog’i bo’lib, texnologik ta’limning ta’lim-tarbiya nazariyasi, ya’ni maqsadlari, mazmuni, qonunlari tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug’ullanadigan fan hisoblanadi. Shu bilan birga u pedagogik texnologiyaning didaktik asosi, uning m ehnat, ta ’lim-tarbiya,qoida tamoyillariga mu-vofiqligini belgilaydi. M ehnat ta’limini didaktik jihatdan to’g’ri bo’lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharoiti hisoblanadi. Buning uchun zamонавиу texnologik ta’limda didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.Texnologik ta’limda qo’llaniladigan asosiy didaktik tamoyillarni o’rganilar ekan, uning o’zi nimadan iborat ekanini oydinlashtirish zarur.

Didaktika tamoyillari deganda ta’lim ning yagona didaktik aniq asosga ega, psixologiyadan olingan tadqiqot ,ma’lumotlar, ilg’or pedagogik tajribalarini hisobga oladi.

## TEXNOLOGIYA TA’LIMINING DIDAFTIK TAMOYILLARI

1. Onglilik va izchilllik
2. Ilmiylik
3. Nazariya bilan amaliyot birligi
4. Ta`lim tarbiyaning birligi
5. Ko’rsatmalilik
6. Mustaxkam va puxta o’zlashtirish
7. Yosh va individual xususiyatlarini xisobga olish
8. Izchilllik
9. Politexnik
- 10.Unumli mehnat asosida o’qitish

**Onglilik va izchilllik**-o’quvchi qilayotgan ishini mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu tamoyil o’quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo’llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o’quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqini rivojlanтирish imkonini beradi.Bu tamoyil o’quvchilardagi ta’lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o’rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o’rtasidagi bog’lanishni tushungan holda o’zlashtirib olish, o’zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo’llay bilish kabi me’yorlarni anglatadi

**Ilmiylik** tamoyili-o’quvchilarga o’rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko’rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so’ngi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o’qitiladigan o’quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo’lishi o’quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy

qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. O'quvchi o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

**Nazariya bilan amaliyat birligi.** Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo'lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog'langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o'zlashtirish va amalda qo'llash lozim. O'quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg'ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo'llanish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar

**Ta`lim va tarbiyaning** birligi maktabda o'quvchi faqat bilim, ko'nikma va malakalarini egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Aqliy va jismoniy texnologiya jarayonida xarakter xususiyatlari va xatti xarakat ko'nikma va odatlarni tarbiyalaydi. Ta`lim jarayonida o'tilayotgan mavzu va mavzuchalarning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'rigilash hamda uni ta`lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta`minlash juda ahamiyatga ega.

**Ko'rsatmalilik tamoyili-** O'qitishning ko'rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o'quvchilarda o'rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog'liq muayyan hissiy amaliy tajriba bo'lgan taqdirdagina ular bilimlarni ongi ravishda o'zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkun. Bu tamoyil o'qitish jarayonida turli sezgilardan: ko'rish, eshitish, badan bilan sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi Ko'rsatmalilik o'quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o'tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi.

**Mustaxkam puxta o'zlashtirish**-o'quvchilar faqatgina o'tilayotgan darslarni o'zlashtirib qolmay oldingi o'tilgan darslar yuzasidan malaka va ko'nikmalarini takomillashtiradilar, kerak bo'lib qolganda esa esga tushurib amaliy ish mobaynida qo'llaydilar.

**Yosh xususiyatlarni hisobga olish.** Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni echishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarning hammalariga tushunarli bo'lsin. Bunda ham o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlari xisobga olinishi kerak.

**izchillik** tamoyili O'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. O'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar. Izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va



dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi.O'quv materialini to'g'ri taqsimlash ya'ni oddiyidan murakkabga bajarishga o'tishni talab qiladi

**Politexnik tamoyil**-bu tamoyil ta'lif tarbiyani ishlab chiqarish asoslari bilan bog'lab, ya'ni tanishtirib olib borishni o'z oldiga maqsad qilib qoyadi. Bu tamoyil orqali biz o'quvchilarni xalq ho'jaligiga kerak bo'lgan kasblar bilan tanishtiramiz.

Unumli texnologiya asosida o'qitish tamoyili.

Ayrim pedagogika nazariyotchilari o'qitishni unumli texnologiya bilan qo'shib olib borib bo'lmaydi degan fikrni ilgari surgan edilar.Texnologiya ta'limi darslarida bajariladigan ishlar mashq asosida olib borilsa etarli bo'ladi degan noto'g'ri fikrni ilgari surgan edilar.Lekin hayot shuni ko'rsatdiki bu fikr noto'g'ri ekanli gini, ya'ni o'quvchi o'z ko'zi bilab texnologiyaning yakunini ko'rgandagina unda texnologiyaga qiziqish hamda texnologiya kishisiga hurmat ortishi isbotlangan.Hun arli kisi hech qachon xor bo'lmaydi.

Sh ning uchun ham texnologiya ta'lim darslari unumli texnologiya asosida olib boriladi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak olgan bilimlar faoliyat yuritish natijasida mustaxkamlanadi ,boyiydi.Shu bois o'quvchilar nazariy olgan bilimlarini amaliy darslarda qo'llay olsalar o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan bo'ladi.

O'quvchilardagi iqtidor rivojlanib,qiziqishlar ustun kelib amaliy kasblarga bo'lgan qiziqish yuzaga chiqishiga zamin yaratishi mumkin.

Texnologiya faning didaktik tamoyillari,dastlabki qoidalari shulardan iborat.Ya'ni o'quvchi olgan bilimlarini amaliyotda qo'lay olishi,tajriba orttishi,o'zi yasashi,o'zi yangi g'oyalar bilan boyitishi mumkin.

Ularga amal qilingan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish o'qituvchining pedagogik mahoratini oshirib borishi, o'quvchilarning aqliy va axloqiy sifatlarni egallashlari, shuningdek, ularda shaxsiy tajribalarning hosil bo'lishiga zamin yaratadi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1.Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Texnologiya va kasb ta'limi .nazariyasi hamda metodikasi.Toshkent,O'qituvchi, 1992.

2.Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov Q.T, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. Toshkent., Iqtisod moliya, 2006

3. Texnologiya ta'limi metodikasi / Magdiyev O., Boltaboyev S.A, O. Avazboyev, V.N. Sattorov. Toshkent., TDPU 2000

4.Samarqand Davlat Universiteti Umumtexnika fanlari va Texnologiyalar kafedrasи “Texnologiya “fanini o'qitish metodikasi fanidan o'quv uslubiy majmua.

#### Elektron ta'lim resurslari

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.TDPU.uz](http://www.TDPU.uz)
4. <https://fayllar.org>

